



O'zbek Lisoniy Manzarasida Metafora ve Metaforik Modellashtirish

Metaphor and Metaphorical Modeling in Uzbek Language

Dilrabo BAXRONOVA*

Özet

*İnsanın herhangi bir yabancı dili mükemmel öğrenebilmesi için öncelikle, kendi ana dilini mükemmel bilmesi gerekir. Çünkü "her milletin dünyada varlığını gösteren aynası onun dili ve edebiyatıdır." Halkın dünyaya bakış tarzını onun dilindeki metaforlar hakkında yapılan araştırmalarla daha iyi anlamak mümkündür. Makalede, atasözü ve deyimlerin şekillenmesinde önemli olan metaforlar incelenmiştir. Özellikle, hayvan adlarıyla şekillenen atasözü ve deyimlerdeki zoometaforlar tahlil ve tasnif edilmiştir. **Anahtar kelimeler:** medeniyet, metafor, zoometafor, ekspressiflik, metaforik modelleştirme*

Abstract

Before learning any kind of foreign languages a person should know their own native language perfectly. Because, 'the reflection of every nation in the world is its language and literature'. This article devoted to the Uzbek national zoomorphisms and their linguistic analyses. Paremiacs and idioms have an important role to play in identifying the every national mentality and culture. The roles of metaphors are very important in their formation.

Keywords: culture, metaphor, zoometaphor, expressiveness, metaphorical modeling

Har bir xalq asrlar davomida juda katta tajriba to'playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqollar, turg'un iboralar ana shu merosning bir qismi bo'lib, ularning shakllanishida metaforaning o'rni katta hisoblanadi. Chunki, olamning lisoniy manzarasida "real borliqning deyarli barcha ob'yektlari u yoki bu belgini ifodalab kelishga qodir hisoblanadi" [Глазунова 2006: 190].

Metaforalar muloqot pragmatikasini adresatga tez va oson singib tushunarli bo'lishini ta'minlaydi, nutqning ekspressiv-emosivligini, stilistik bo'yoqdorligini oshiradi. Ular zamonlar osha tobora sayqallashadi, pishiydi, mazmuni teranlashadi va xalq qalbidan chuqur joy olib, maqol, matal va turg'un iboralar tarkibiga singib ketadi.

Jahon tilshunosligida metafora va frazeologik birliklar, konsept va konseptualashtirishni qiyoslab o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Metafora va konseptlar muayyan millatning tili va madaniyatining o'ziga xos va universal xususiyatlarini ochib beradi, nazariy asoslarini tadqiq etishga imkon yaratadi.

* Özbekistan Devlet Cihan Dilleri Üniversitesi. iiinteligente@gmail.com

Tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichida keng tarqalgan konsepsiya – metaforaning interaksionistik konsepsiyasi (Interaksionistik konsepsiyaga ko'ra, metafora "uni tashkil etuvchi element va jarayonlarning o'zaro ta'siri" sifatida ko'rib chiqiladi) hisoblanib, bunda psixolingvistik yondashuv (M. Gern) va mantiqiy yondashuv (J. Lakoff) e'tiborga olinadi [Guern vd. 1976; Lakoff vd. 2001]. Ushbu nazariyalarning samaraligi shundaki, M. Gern va J. Lakoff tomonidan bildirilgan asosiy qoidalarni fon bilimlar, konseptlar, madaniyat kodlari kabi tushunchalar bilan to'ldirish va rivojlantirish jadallik bilan davom etmoqda.

Olamning lisoniy manzarasida ob'ektning sub'ektga xossasini ko'chirishda, o'xshatishda qandaydir darajada semantik yoki pragmatik aloqadorlikning bo'lishi metaforik modellashtirishning muhim belgisi hisoblanadi. Masalan: Oq niyat, qora niyat → Insonning niyati pok yoki nopok bo'lishi mumkin. Oq rang – poklik belgisi bo'lsa, qora rang nopoklik ramzidir. Bu konseptlar orasidagi ko'zga ko'rinmas bog'liqlik natijasida ushbu metaforalar hosil bo'lgan.

Metafora tuzilishiga ko'ra sodda va kengaygan, badiiy hamda lingvistik metaforalarga ajratiladi. Lingvistik metafora ekspressiv bo'lmagan atama, badiiy metafora esa ekspressivdir. Kognitologiyada metaforalarning qurilishini yoritib beruvchi "inji" [Баранов 2014: 632] nomini olgan "Metaphors we live by" mualliflari J. Lakoff va M. Jonson metaforalar hayotimizning tarkibiy qismiga aylanib ulgurganini ta'kidlab o'tadilar. Ularning fikricha, mazmun jihatdan, metafora har qanday sathda inson tajribasini bir sohadan boshqa sohaga proeksiya qiladi. J. Lakoff va M. Jonsonlar bu sohalarni source domain (manba sohasi) va target domain (nishon sohasi) [Лаккофф 2004: 256] deb nomlashgan bo'lsa, boshqa olimlar donor domain va recipient domain (donor soha va retsipient soha) [Чудинов 2001: 238; Киттай vd. 1981: 31-63], yana boshqalari esa sfera-manba va sfera-magnit [Чудинов 2003: 248] terminlarini taklif qildilar. Qisqacha aytganda, kognitiv tilshunoslikda metafora "bir konseptual doira ichidagi voqelikning boshqa konseptual doirada mavjud terminlarda tushunishdir" [Кóvecses 2002: 287].

Antropotsentrik paradigmagacha asoslangan zoometaforalarda kognitiv manba – ma'lum maqsadni ko'zlab insonga ko'chirilgan hayvonlar obrazi hisoblanadi. Bunday metaforalar o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatga ega bo'lib, ularni qiyosiy-chog'ishtirma aspektida o'rganish turli halqlarga xos har xil etnomadaniy xususiyatlarni ochib berishga, muloqot engilligiga, tarjima san'atining rivojiga xizmat qiladi.

Tadqiqotlarda zoonim va zoomorfizm terminlariga aniq ta'rif berilmagan. Ularni bir-biriga sinonim sifatida talqin qilish [Ордонова 2013: 32] hamda zoonim – bu, hayvonlarga berilgan biologik nom va laqab sifatida, zoomorfizmlarni esa metaforik ma'no hosil qiluvchi til birliklari sifatida qabul qilish [Гукетлова 2009: 228] ilmiy izlanishlarda ko'rsatilgan. Tadqiqotlarda tarkibida zoonim va zoomorfizm terminlari mavjud leksik va frazeologik birliklar (bundan buyon LB va FB) birday ishlatilgan. Ular orasidagi farq aniq ko'rsatilmagan. Ushbu tadqiqotda, LB va FBlarda zoonim va zoomorfizmning qo'llanilishida quyidagicha farq va chegara qo'yildi:

Zoonim– bu, hayvon nomi (biologik va onomasiologik: *ot* (hayvon nomi) → *Qashqa* (otning laqabi) bo'lib, unda ko'chma ma'no mavjud emas. Zoonimlar hayvonning biologik xususiyatini ta'riflab keladi hamda ular FBlar tarkibida kelishi mumkin. Bunday FBlar zoonim komponentli FBlar deb ataladi va bu iboralar ko'chma ma'no bilan birgalikda to'g'ri ma'noga ham ega bo'ladi: *er qanoti ot, chumoli ajali etganda qanot chiqaradi, el tinsa ham it tinmas* va h.k.

Zoomorfizmlar– bu, hayvonlarning ko'chma nomlari bo'lib, ular metaforik modellashtirishda faol ishlatiladi: *tulki* (ayyor odam) → *tulkiday bo'lmoq* (ayyor bo'lmoq). O'zbek olimi M. Yo'ldoshev metaforani "narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishi" deb ta'riflab, tadqiqot ishida qiziqarli zoometaforalarni keltirib o'tgan.

Mas. : Buqalamun bilan uchrashuv (S. Ahmad) [Yo'ldoshev 2008: 128]. Bu misolda *buqalamun* deganda inson nazarda tutilgan bo'lib, pragmatik mazmunda o'zgaruvchan, birdek o'z fikrida turmaydigan odam tushuniladi. Shuningdek, olim "Karim tulkiday ayyor odam" konstruksiyasi orqali metafora va metaforik modellashtirishni tushunarli yoritib bergan. "Karim → o'xshatish sub'yekti, tulki → o'xshatish etaloni, ayyor → o'xshatish asosi, -day → o'xshatishning shakliiy ko'rsatkichi. Bu to'liq o'xshatish. *Karim - tulki*. Bu qisqargan o'xshatish, chunki gapda o'xshatish asosi [qaysi xususiyati o'xshashligi] va ko'rsatkichi ifodalanmagan. *Voy, tulki-ey...* (Karimga nisbatan ishlatilmoqda). Bu metafora hisoblanadi. Chunki Karimning ayyorligi obrazli tarzda ifodalanayapti, butunlay qayta nomlanayapti" [Yo'ldoshev 2008: 89].

Ko'rinib turibdiki, antropotsentrik paradigmadagi zoomorfizmlarni timsol qilib olib, ular vositasida muayyan sifatarga (xoh ijobiy, xoh salbiy) ega bo'lgan kishilarning obrazi gavdalandiriladi. O'zbek milliy lisoniy manzarasida "sherni - mard, dovyurak, botirlarga; tuyani - el-yurt og'alariga, buzruklariga, shuningdek kuchli, chidamli, sabot-matonatli, ba'zi hollarda esa takabbur kishilarga; eshak va ho'kizni - befahm, befarosat, dangasalarga; qo'yni - yuvosh tabiatli kishilarga; mazlumlariga va shu kabi boshqa hayvonlarning u yoki bu jihatini kishilarga nisbatan tashbih etiladi" [Shomaqsudov 1990: 527].

Tadqiqotda zoomorfizimli metaforalar inson xarakter xususiyatlarini tasvirlash bo'yicha quyidagicha mavzuiy guruhlariga tasniflandi:

tashqi qiyofaga xos xususiyatlar → beso'naqay, semiz; qomati raso, kelishgan; ozg'in, qotma; novcha, daroz; pakana, ko'rimsiz; kuchli, baquvvat. Mas.: ayiq → 1. Baquvvat, zo'r, kuchli. Erkak kishi haqida. U, ta'bir joiz bo'lsa, *ayiqday baquvvat*, xushchaqchak inson ekan (O. Yoqubov. Xotiralar) [Mahmudov vd. 2013: 320]. Bu guruhga ayiq, ho'kiz, sigir, maymun kabi zoomorfizmlar kiradi.

1. *shaxsiy xarakterga xos xususiyatlari* → yuvosh, mulojim, beozor; yovuz, shafqatsiz; mehnatsevar; qaysar, o'jar; itoatkor; makkor, dog'uli; qo'rqqoq; dangasa; berahm, zolim; ko'rnamak, oqibatsiz; pastkash, tuban; qo'pol; mag'rur; kuchli; jasur, mard; ayyor. Mas. : tulki → ayyor, quv, hiylakor. Odam haqida. Kechagina ko'ziga *ilondek zaharli, tulkidek ayyor* ko'ringan manavi odamlar nega bugun *musichadek beozor* tuyulmokda? [U. Hamdam. Sabo va Samandar]. Bu guruhga qo'y, qo'zichoq, chumoli, kabutar, tulki, ilon kabi zoomorfizmlar kiradi.

2. *insonning fiziologik xarakteristikasi* → qulog'i og'ir; ko'zi ojiz yoki g'ilay; sovuqqa chidamli, chiniquqan; iflos, isqirt; keksaygan, qari; kuchga to'lgan, yosh; erta turuvchi; kech turuvchi. Mas. : ko'rshapalak → ko'zi ojiz yoki g'ilay odam haqida. Mashhur bir bazzozning o'g'liga so'ratishibdi. Oppoqqina, suxsurday yigit ekanu, biroq *bir ko'zi g'ilayroq* ekan. Oyim o'shandan gap ochgan edi, bir lo'lilik qilib berdim, tengim *ko'rshapalakmi*, deb [Oybek, Ulug' yo'l]. Bu guruhga buqa, ot, ko'rshapalak, ko'rsichqon, cho'chqa kabi zoomorfizmlar kiradi.

3. *xulq-atvoriga xos xususiyatlar* → boshqalardan ajralib turuvchi; quvnoq, o'yinqaroq; urushqoq, janjalkash; itoatkor; xushomadgo'y, tilyog'lama; taqlidchi; malay; takabbur. Mas. : it → birovning manfaati uchun birovlariga zulm qiluvchi odam, malay. Besh ming so'm uchun kinochilarning ketidan *itday tilini chiqarib*, yuguradigan ahmok yo'q! Ana, yoshlar bor, o'shalar qilsin! [M. M. Do'st. Lolazor]. Bu guruhga xo'roz, it, maymun, ko'ppak kabi zoomorfizmlar kiradi.

4. *intellektual xususiyatlar* → aqlli; ahmoq; kaltafahm; zehni past; zehnli; qobiliyatli; qobiliyatsiz; omi; nodon, johil. Mas. : tovuq → tovuqmiya. – Gap tamom, – mavzuga nuqta qo'ydi er, – hoziroq olib borib berasan. O'sha bechoralarni qaqshatib baraka toparmiding, *tovuqmiya!* [F. Parplev, Oqibat]. Bu guruhga tovuq, echki, mushuk, chumchuq, ayiq, ho'kiz kabi zoomorfizmlar kiradi.

5. *ijtimoiy xususiyatlar* → bergan va'dasida turuvchi odam; hamma narsaga yopishib oladigan kishi; umum ishini qiyin vaqtda tashlab ketuvchi; pastkash, arzimas odam; tajribali, ko'pni ko'rgan; tajribasiz, g'o'r; beparvo, boqibeg'am; muttaham, olg'ir, firibgar; berilib, g'ayrat bilan bir ishni bajarish; johil; mutaassib; yaramas ishlarni qiluvchi; o'z fikri yo'q odam; o'zini odobsiz, surbet tutmoq; begonaning hisobiga kun ko'ruvchi; mag'rur ko'rinishga harakat qiluvchi ahmoq odam; shahvatparast, suqlanib qaraydigan; nima qilishini bilib bo'lmaydigan odam: arzimas narsaga katta e'tibor beradigan odam. Mas. : pashsha → Juda kichkina, mayda, arzimas odam yoki narsa. Ichimda, xudo urdi, bu devning oldida men bechora *pashshaday* bo'p goldim, ishqilib, xotin ko'rmasin-da, deb o'yladim [M. M. Do'st. Lolazor]. Bu guruhga tovuq, ho'kiz, pashsha, ilon, bo'ri, buzoq, eshak kabi zoomorfizmlar kiradi.

O'zbek lisoniy manzarasida metaforik modellashtirishlarda bir hayvon nomi diskursga qarab ham ijobiy, ham salbiy xususiyatlarni bildirib kelishi va tasniflangan guruhlarning bir nechtasiga mansub bo'lishi mumkin. Masalan, *ayiq* zoomorfizmi metaforalarda *tashqi qiyofaga xos va fiziologik xususiyat* kabi insonning salbiy va ijobiy sifatlarini tavsiflab kelishi aniqlandi:

ayiq → salbiy: Befahm, beso'naqay, qo'pol; o'xshovsiz harakat qiluvchi odam; U kotibni *ayiqday befahm* odam bo'lsa kerak deb o'ylagandi [N. Eshonkul. Bevaqt chalingan bong].

ayiq → ijobiy: Baquvvat, zo'r, kuchli. Erkak kishi haqida; U, ta'bir joiz bo'lsa, *ayiqday baquvvat*, xushchaqchak inson ekan [O. Yoqubov. Xotiralar].

Demak, mehnatsevar, aqlsiz, kuchli, qo'rqqoq, tanti, abjirlik, yuvoshlik, baquvvatlik, pastkashlik kabi konseptlarni metaforik modellashtirishda muayyan halq madaniyatida etalon sifatida qabul qilingan tushunchalar yotadi. Masalan, o'zbeklarda maymun abjir, birovga taqlid qiluvchi odamni bildirishdan tashqari, badbaxshalikni ifodalaydi [O'TIL, T II. 529 b.].

Ispan milliy madaniyatida esa *mono/a* (maymun) kelishganlik, chiroyni ifodalaydi. Mas.: Qué mona/a! (Qanday chiroyli!; *aynan*. Qanday maymun!). Shuningdek, o'zbek tilida mavjud bo'lmagan spirtli ichimlikni ko'p ichib qotib uxlayotgan odamga nisbatan, *dormir la mona* iborasi qo'llaniladi. Manbalarda bu ibora 16 asrda vino ichimligi sifatini aniqlash uchun maymunlarga berilgani va ichib olgan maymunlar qotib uxlashidan kelib chiqqanligi yoritilgan [Guerrler 2014: 96]. O'zbek tilida orqa-oldiga qaramay, me'yoridan juda ortiq darajada, ko'p spirtli ichimlik iste'mol qiluvchi piyonista odamga nisbatan "itday ichmoq" iborasi ishlatiladi. Bir kuni *itdek ichib* kelganida, cholim rahmatli qattiq koyidi, juda qattiq koyidi [X. Sultonov. Ajoyib kunlarning birlida] [Mahmudov vd. 2013: 320]. Ko'rinib turibdiki, zoometaforalar muayyan xalq milliy madaniyatini, o'sha xalq tomonidan norma sifatida qabul qilingan etalon, stereotiplarni yoritishda eng yorqin ekspressiv namunalaridir.

Xalq namoyondalari adib va shoirlar maqol, matal, o'xshatishlar va turli obrazlardan o'z asarlarida ekspressivlikni oshirish maqsadida ustalik bilan foydalanadilar. Mas. : atoqli o'zbek adibi Abdulla Qahhor o'z asarlarida tayyor xalq ijodiyotidan foydalanish bilan birga, ko'plab mualliflik iboralarini ham yaratgan: "– Gijinglagan yigitlar turganda shu qizni sekretar qilib yuboraman deb o'tiribdi! Qishloqda odam qolmasa, echkinging oti mulla Norqo'zi bo'ladi" [A. Qahhor. Sinchalak].

"El ovloq bo'lsa, to'ng'iz tepaga chiqadi" yoki "Qorong'i qolgan yurtga qorashaqshaq podsho bo'libdi"; kabi iboralarni matndagi *Qishloqda odam qolmasa, echkinging oti mulla Norqo'zi bo'ladi* shakliga o'zgartirish bilan yozuvchi o'ziga bino qo'ygan ba'zi erkaklarning qiz bolani ojiza hisoblab, o'zlarini ayoldan baland tutishlarini aniqroq ko'rsatish maqsadida ishlatgan. Bu ibora sinonim yoki variantlari bilan almashtirilsa, matn rangsizlanib, ekspressivlik kamayadi. Iboralar tarkibidagi echki zoomorfizmi to'ng'iz va qorashaqshaqqa qaraganda nisbatan

milliy konseptdir, o'quvchi kontekstda *Qishloqda odam qolmasa, echkining oti mulla Norqo'zi bo'ladi* iborasini oson tushunib oladi.

Xulosa shuki, "teran mazmuni, o'tkir haqiqatni, so'z xazinasining duru javohirlarini o'zida mujassam etgan" [Shomaqsudov vd. 1990: 5] metaforalar nutqni serjilo qiladi, uning ko'rkini, bo'yoqdorligini oshiradi, muloqot pragmatikasini adresatga tez va oson singib tushunarli bo'lishini ta'minlaydi, ular orasida zoometaforalar o'zining ekspressiv xususiyati bilan eng ta'sirchan, eng esda qoluvchi, kishini o'ylashga, fikr-mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga egaligi bilan ajralib turadi.

KAYNAKÇA

- 📖 AVLONIY A. [2009]. Tanlangan asarlar. Toshkent "Ma'naviyat".
- 📖 GUERN M. [1976]. La metáfora y la metonimia, Madrid, Cátedra; Lakoff, G. y Mark J. [2001]: Metáforas de la vida cotidiana, Madrid, Cátedra.
- 📖 GUERRIER H. [2014]. Con dos huevos / Héloïse Guerrier y David Sánchez. Astiberri 96 p.
- 📖 KITTAY E. - LEHRER A. [1981]. Semantic field and the structure of metaphor. Studies in language. №5.
- 📖 KÖVECSÉS Z. [2002]. Metaphor: a practical introduction/ Z. Kövecses. Oxford: Oxford University Press.
- 📖 MAHMUDOV N. - XUDOYBERGANOVA D. [2013]. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. Toshkent "Ma'naviyat".
- 📖 SHOMAQSUDOV Sh. - SHORAHMEDOV Sh. [1990]. Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati. Toshkent.
- 📖 YO'LDOSHEV M. [2008]. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent.
- 📖 БАРАНОВ А. Н. [2014]. Дескрипторная теория метафоры. Москва: Языки славянской культуры.
- 📖 ГЛАЗУНОВА О. И. [2006]. Логика метафорических преобразований. СПб.
- 📖 ГУКЕТЛОВА Ф. Н. [2009]. Зооморфный код культуры в языковой картине мира [на материале французского, кабардино-черкесского и русского языков]. Автореф. Москва.
- 📖 ЛАКОФФ Дж. – ДЖОНСОН, М. [2004]. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под. ред. и с предисл. А. Н. Баранова. Москва.
- 📖 ОГДОНОВА Ц. Ц. [2013]. Проблема типологии концептов в современной лингвистике. Иркутск.
- 📖 ЧУДИНОВ А. П. [2001]. Россия в метафорическом зеркале: когнитивное исследование политической метафоры [1991-2000]. Екатеринбург.
- 📖 ЧУДИНОВ А. П. [2003]. Метафорическая мозаика в современной политической коммуникации. Екатеринбург.